

## O‘TKIR RESPIRATOR KASALLIKLARINING KLINIK VA EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Halilova Nilufar Mamurjanovna*

*Jo‘raqulova Rayxona*

*Ortiqova Shaxrizoda*

*Mamatqulova Nodira*

*(OXI yo‘nalishi talabalari)*

*ZARMED UNIVERSITETI,*

*SAMARQAND KAMPUSI*

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘tkir respirator kasalliklar — [viruslar](#) qo‘zg‘atadigan, kelib chiqishi bir-biriga o‘xshash o‘tkir infeksiyon kasalliklarning umumiy nomi. Nafas yo‘llari (burun, hiqildoq, kekirdak, [bronxlar](#)) shilliq pardalari, ko‘z shilliq pardasi — konyunktivaga zarar yetishi bilan kechadi. O‘tkir respirator kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilariga [adenoviruslar](#), paragripp viruslari, rinoviruslar va boshqalar kiradi. O‘tkir respirator kasalliklarning ayrim (sporadik) guruhlari ko‘proq kuzatiladi, lekin ular aholining butun bir guruhini ham qamrab olishi mumkin (qarang [Epidemiya](#)). Har qanday virusli infeksiya bemordan havotomchi (gaplashganda, aksirganda, yo‘talganda) yo‘li orqali yuqadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘tkir respirator infeksiyalar, nafas yo‘llari kasalliklari, virusli infeksiya, epidemiologiya, klinik belgilar, diagnostika, profilaktika, immunitet, davolash usullari, aholi salomatligi.

**Tadqiqotning maqsadi:** O‘tkir respirator kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalish xususiyatlari, klinik belgilarini o‘rganish hamda ularning oldini olish, erta tashxislash va samarali davolash usullarini tahlil qilish orqali aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** Bu tadqiqotda o‘tkir respirator kasalliklarning tarqalishi, klinik kechishi va ularning oldini olish choralarini o‘rganish maqsadida ilmiy adabiyotlar, statistik ma‘lumotlar hamda tibbiy kuzatuv natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida respublika sog‘liqni saqlash muassasalarida qayd etilgan o‘tkir respirator kasalliklar bilan bog‘liq ma‘lumotlar, shuningdek, tibbiy manbalar va ilmiy maqolalardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullar qo‘llanildi. Jumladan, **tahliliy usul** yordamida mavjud ilmiy adabiyotlar va statistik ma‘lumotlar o‘rganildi va umumlashtirildi. **Kuzatuv usuli** orqali bemorlarda uchraydigan klinik belgilar, kasallikning kechish xususiyatlari hamda xavf omillari baholandi. **Taqqoslash usuli** yordamida turli yosh guruhlari kasallikning uchrash darajasi va rivojlanish omillari solishtirildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida **statistik tahlil usullaridan** foydalanilib, olingan ma'lumotlar tizimlashtirildi va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlab chiqildi. Ushbu usullar orqali o'tkir respirator kasalliklarning tarqalish sabablari, ularning klinik xususiyatlari hamda profilaktika choralarining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Kasallik qo'zg'atuvchi viruslar yuqori nafas yo'llariga (burun, hiqildoqqa) tushadi, shilliq parda (epiteliy)ning tashqi qavatidagi hujayralarga kirib, ularni yemiradi, bunda qo'zg'atuvchilarning bir qismi nobud bo'lib, zaharli modda (endotoksin) ajratadi va organizmni zaharlaydi (intoksikatsiya). Virus saqllovchi po'rsildoq hujayralar ko'chib tushadi va bemor gaplashganda, yo'talganda, aksa urganda tupuk, burun shillig'i va balg'am bilan havoga tushib, atrofdagilarga yuqadi. Kasallik uy anjomlari (idishtovoq, sochiq, o'yinchoqlar va hokazo)dan ham yuqishi mumkin. O'tkir respirator kasalliklark.ni shartli ravishda mavsumiy kasalliklar deb atash mumkin, chunki bu guruh kasalliklar kech kuz va qishda ko'proq kuzatiladi.

Adenovirus kasalliklarga adenoviruslar sabab bo'lib, ular antibiotiklar ta'siriga chidamli, past trada uzoq saqlanadi. Ultrabinafsha nurlar, formalin va fenolning 5% li eritmasi ta'sirida nobud bo'ladi. Organizmga kirgan adenoviruslar 3 — 14 kun davomida (o'rtacha 5—7 kun) kasallik belgilarini paydo qilmaydi (qarang [Inkubatsion davr](#)). Odatda, u asta-sekin boshlanadi, bemorning ahvoli yomonlashadi, intoksikatsiya belgilari paydo bo'ladi, isitma ko'tariladi, darmonsizlik, bo'sh shashish, [bosh og'rig'i](#), ko'ngil aynishi, ba'zan [qusish](#) alomatlari ro'y beradi. Kasallik grippga o'xshab birdan boshlanishi ham mumkin. Qator hollarda isitma ko'tarilishi bilan birga, odatda, uzoq muddatli tumov paydo bo'ladi, qovoqlar qizaradi, ko'zdan yosh oqadi, yutinganda tomoqda og'riq seziladi. Boshqa hollarda azob beradigan quruq [yo'tal](#), tovushning bo'g'ilib qolishi, havo yetishmasligi quzatiladi (qarang [Bo'g'ma](#)). Ba'zan me'daichak faoliyati buziladi (tez-tez suvdek ich ketadi). Bemorni uyda boshqalardan ajratib qo'yiladi. Albatta vrach chaqirish va uning buyurganlarini qat'iy bajarish lozim.

Paragripp kasalliklarni paragripp viruslari qo'zg'atadi, ular 1 — 3 kundan keyin xona haroratida o'z faolligini yo'qotadi, lekin 4° trada yaxshi saqlanadi. Kasallikning inkubatsion davri 1 — 6 kun. Kasallik darmonsizlik, bir oz tumov va yo'tal bilan boshlanadi: gavda temperaturasi sal ko'tariladi, tovush bo'g'ilib qoladi, tomoq achishib, bemor quvquv yo'taladi. 1 — 3 yashar bolalarda shilliq parda shishishi sababli hiqildoq torayadi (stenoz), bunda nafas olish to'satdan qiyinlashadi. Bemor uy sharoitida vrach nazoratida davolanadi. Chaqaloqlarda va bir yashar bolalarda o'pkaning yallig'lanishi (zotiljam), o'rta quloqning yallig'lanishi (qarang [Otit](#)) kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda bolalar kasalxonada davolanadi.

Rinovirus kasalliklarni rinoviruslar (burun viruslari) qo'zg'atadi. Kasalliklar kamdankam hollarda yil bo'yi uchrab turadi, epidemiyalar bo'lmaydi. [Inkubatsion davri](#) 2—3 kun. Darmonsizlik, gavda trasining bir oz ko'tarilishi, bosh og'rishi,

burundan yiring aralash shilimshiq (sariqyashil rangli) kelishi, tumov, yo‘tal kuzatiladi. Chaqaloq va go‘daklar bu kasallikka beriluvchan bo‘ladi, kasallik ularda og‘ir o‘tadi va turli asoratlar qolishi mumkin.

Respirator — sinsitial virusli kasallikni sinsitial virus keltirib chiqaradi, u xona haroratida tez halok bo‘ladi. Gavda temperaturasi 38— 39° gacha ko‘tariladi, yo‘tal, tumov paydo bo‘ladi. Bronxit bo‘lishi mumkin. 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ko‘pincha og‘ir zotiljam kuzatiladi, bunda bolalar kasalxonada davolanadi.

O‘tkir respirator kasalliklar bilan og‘rigan bemorni uyda davolaganda alohida xonaga yotqiziladi. Bemorni parvarish qilayotgan oila a‘zolari og‘iz-burniga doka niqob taqib yurishlari kerak. Kasal yotgan xonani tez-tez shamollatib, ko‘rpa-yostiq jildi, choyshabni muntazam almashtirib turish zarur. Bemorning harorati ko‘tarilgudek bo‘lsa, uni yaxshilab o‘rabchirmab, limon, malina solingan issiq choy berish, iloji boricha ko‘proq suyuqlik (choy, mors, kompot, sharbat va hokazo) ichirish lozim. Ovqat yengil hazm bo‘ladigan va oqsilga boy (bulonlar, go‘shtli va baliqdan qilingan kotletlar, tvorog, sabzavotlar, ho‘l mevalar) bo‘lishi zarur. Bemor uchun alohida idishtovoq tutish lozim. U yotgan xonani va mebelni kuniga ikki mahal nam latta bilan artib turiladi.

**Xulosa:** O‘tkir respirator kasalliklar aholi orasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklar qatoriga kiradi va ular asosan viruslar hamda bakteriyalar ta‘sirida yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu kasalliklar ko‘proq mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, ayniqsa kuz va qish oylarida tez-tez uchraydi. Shuningdek, immunitetning pasayishi, gigiyena qoidalariga to‘liq rioya qilmaslik va odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda bo‘lish kasallikning tarqalishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o‘tkir respirator kasalliklarning erta tashxis qo‘yilishi, to‘g‘ri davolash choralari qo‘llash va profilaktika tadbirlarini kuchaytirish kasallik asoratlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, immunitetni mustahkamlash va mavsumiy profilaktik choralarni amalga oshirish o‘tkir respirator kasalliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli tibbiyot xodimlari va aholi o‘rtasida profilaktik tushuntirish ishlarini kuchaytirish hamda kasalliklarni erta aniqlash va davolash tizimini takomillashtirish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A.A., Karimov B.B. **Yuqumli kasalliklar asoslari.** – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
2. Ahmedov O., Rasulov H. **Epidemiologiya va infeksiyon kasalliklar.** – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2019.
3. WHO. **Acute Respiratory Infections: Prevention and Control.** – Geneva: World Health Organization, 2021.

4. Murray P.R., Rosenthal K.S., Pfaller M.A. **Medical Microbiology.** – 9th ed. – Philadelphia: Elsevier, 2020.
5. Tortora G.J., Derrickson B. **Principles of Anatomy and Physiology.** – New York: Wiley, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. **Yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma.** – Toshkent, 2022.

